

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

SAYDULLAYEV BAHODIR JO‘RAYEVICH

**CR-39 IZLI DETEKTOR BILAN SUYAK QOLDIQLARI VA ODAMLAR
SOCHLARIDAGI ^{222}Rn VA ^{226}Ra NI ANIQLASH USLUBINI ISHLAB
CHIQLASH**

01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Saydullayev Bahodir Jo'rayevich

CR-39 izli detector bilan suyak qoldiqlari va odam sochlaridagi ^{222}Rn
va ^{226}Ra ni aniqlash uslubini ishlab chiqish 3

Сайдуллаев БаходирЖураевич

Разработка методики определения ^{222}Rn и ^{226}Ra в костных
останках и волосах людей трековым детектором CR-39 21

Saydullaev Bakhodir Jurayevich

Development method for determining ^{222}Rn and ^{226}Ra in bones and
humanhairsby using of the CR-39 track detector 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
YADRO FIZIKASI INSTITUTI

SAYDULLAYEV BAHODIR JO‘RAYEVICH

**CR-39 IZLI DETEKTOR BILAN SUYAK QOLDIQLARI VA ODAMLAR
SOCHLARIDAGI ^{222}Rn VA ^{226}Ra NI ANIQLASH USLUBINI ISHLAB
CHIQLASH**

01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/TXXX raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.inp.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Vasidov Abdisamat texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	Radjapov Sali Ashirovich fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim Danilova Elena Artavazdovna kimyo fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. tel. (+99871) 289-31-41; faks (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, YaFI. tel. (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ da tarqatildi.
(2023-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Yu. Tashmetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi f.-m.f.d., professor

O.R. Tojiboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD, katta ilmiy xodim

E.M. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab yetakchi ilmiy markazlarida instrumental neytron-aktivatsion tahlil (INAT) usuli yordamida tadqiqotlar olib borilmoqda. Radioanalitik usullar orasida elementlarni aniqlash chegarasining pastligi va ko'p elementli tahlilni o'tkazish imkoniyati tufayli instrumental neytron-aktivatsion tahlili keng qo'llaniladi. Arxeologlar, paleontologlar va radioekologlar uchun suyaklarning elementar tarkibi, shuningdek, skeletning yer tarkibida uzoq vaqt yotishi paytida suyaklardagi radionuklidlarning harakatchanligi va to'planishi haqidagi ma'lumotlar amaliy ham ilmiy qiziqish uyg'otadi. Instrumental neytron-aktivatsion tahlilining dolzarbligi sayyoramizdagi hayotning rivojlanishida yangi topilgan (2000–2014) dinozavr suyak qoldiqlari, janubiy mamont, arxantrop va qo'y (standart) suyak tarkibidagi elementlarning turli yosh davrlariga mos kelishini o'rganishda keng qo'llanib kelmoqda. Suyak namunalari ^{226}Ra solishtirma aktivligini aniqlash CR-39 tipidagi qattiq jisimli iz detektor (QJID) yordamida ^{222}Rn ning eksxalyatsiya tezligini tahlil qilish usullurini talab qiladi.

Dunyoda alfa zarralarni o'lchash usullaridan ekologiya, oziq-ovqat ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, geologik va geofizik tadqiqotlar bilan bog'liq tadqiqotlarda keng qo'llanilgan. QJID tabiiy va sun'iy obyektlarda radonni o'rganish uchun keng qo'llanadi. QJIDning afzalliklari ularning soddaligi, keng harorat oralig'ida, zaif ionlashtiruvchi gamma va beta-nurlanishning katta oqimlari sharoitida ishlash va integral yoki o'rtacha radon aktivligini olishdan iborat. Iqlim o'zgarishi va radioaktiv ifloslanishning ekologik muhitga texnogen ta'siri sharoitida inson a'zolaridagi radiatsiya darajasini nazorat qilish katta ahamiyat kasb etadi, chunki insonning ayrim organlari kasalliklarining paydo bo'lishi bevosita nurlanish darajasiga bog'liq. Shunday a'zoldan biri inson sochidir.

Respublikamizda soch tarkibidagi radioaktiv mikroelementlarning tarkibi va o'zgaruvchanligini aniqlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda, bu esa olimlar, radioekologlar va shifokorlarga inson organizmining jismoniy holatini ko'rsatkichi sifatida foydalanish imkonini beradi. Ushbu amaliy tadqiqotning yo'nalishi mamlakatimiz ilm-fani rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan 2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi¹ bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 15-dekabrda PQ-1442-son "2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida", 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF №60-sonli farmoni «2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida».

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energiya, energiya tejash va muqobil energiya manbalari” va VII. “Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va foydali qazilmalarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan..

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘plab laboratoriyalari olimlari CR-39 tipidagi iz detektorlari yordamida radonning hajmiy aktivligi va eksxalyatsiya tezligini o‘lchash bo‘yicha tadqiqot olib bormoqdalar, xususan, shvetsiyalik (Akerblom G., Anderson P., Mustonen R.), sloveniyalik (Ilich R., Durrani S.A., Vaupotik J.), amerikalik (Fleysler R.L., Xart H.R., Morgo-Campero A.), hindistonlik (Singx S., Malxotra R., Kumar J.), rossiyalik (Yakovleva V.S., Karatayev V.D., Nikolayev V.A.), pokistonlik (Said Rahman, Al-Jarallah M.I., Abu- Jarad F., Fazal-ur- Rahmon.), o‘zbekistonlik (Vasidov A.) va boshqa tadqiqotchilar.

CR-39 izli detektori yordamida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kundalik hayotda dunyo aholisi radonning katta dozalarini ^{222}Rn dan oladi. Shu bilan birga, oddiy uylar va ish joylarida yuqori darajadagi radon kuzatilib, aholi salomatligiga xavf tug‘diradi. Ushbu natijalar insonga radon ta‘sirini cheklashga qaratilgan keng ko‘lamli faoliyat va intensiv tadqiqotlarga olib keldi. Rossiyalik olimlarning fikriga ko‘ra, hayvonlar va inson suyaklari arxeologik yodgorliklar ichida eng ko‘p ham uzoq vaqt saqlanib qolgan material hisoblanadi. A. Vasidovning ishida INAT eksperimental usuli yordamida 1960–1980 yillarda O‘zbekiston hududidan topilgan tarixiy va qadimgi suyaklarning mikroelement tarkibi aniqlangan va suyak qoldiqlari tarkibidagi uran va parchalanuvchi elementlarning ko‘payishi skeletlarning tuproq qatlamlarida bo‘lish muddatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Biroq hozirgi vaqtda suyak topilmalarida ^{222}Rn ning eksxalyatsiya tezligi va ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi, shuningdek, umumiy alfa aktivligi hali o‘lchanmagan. Tuproq-suyak tizimida yuzaga keladigan sharoitlarda suyaklardagi elementlarning kirib borishi va to‘planishi ham radiogen usulida yoshni aniqlash hali ham munozarali bo‘lib qolmoqda. Tarixiy va qadimiy suyak topilmalaridagi elementlar tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ham yo‘q. Shuning uchun suyak topilmalarining asosiy komponentlari va boshqa iz elementlarini o‘rganish sut emizuvchilar ham Yerdagi ibtidoiy odamlarning yoshi va hayotining kelib chiqishi haqida qimmatli ma‘lumotlarni berishi mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli qarori asosida 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari dasturi yuzasidan “Yadroviy tibbiyotda qo‘llaniladigan radionuklidlarni texnologiyasini ishlab chiqish va suyuq radioaktiv chiqindilarni

tozalashda qo'llaniladigan modifikatsiyalangan ham kompozit sorbentlarni olish texnologiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi CR-39 detektori yordamida ^{222}Rn eksxalyatsiya tezligini va ^{226}Ra solishtirma aktivligini aniqlash uslubini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dinozavrlar, janubiy mamontlar, arxantropolar va standart suyaklarining elementar tarkibini o'rganish uchun instrumental neytron-aktivatsion tahlil usulini qo'llash orqali yerdagi sut emizuvchilar ham ibtidoiy odamlar hayotining rivojlanishining turli yosh davrlariga mos keladigan ma'lumotlarini olish;

CR-39 detektorlari yordamida suyak qoldiqlari va uning atrofidagi tuproqlarda ^{222}Rn eksxalyatsiya tezligini hamda ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlash uchun izli tahlil uslubini ishlab chiqish;

izli tahlil natijalarining ishonchliligini baholash uchun radionuklidlarning umumiy solishtirma α -aktivligini aniqlash uslubini ishlab chiqish;

inson sochidagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlash uchun CR-39 iz detektori yordamida ^{222}Rn eksxalyatsiya tezligini o'lchash uslubini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyektlari sifatida dinozavr, janubiy mamontlar, arxantrop, standart yoki qo'y suyagi va shoxli qoramol suyaklari hamda ularni o'rab turgan tuproqlar, inson sochlari, radioaktiv va inert gaz ^{222}Rn va ^{226}Ra olingan.

Tadqiqot predmetini kimyoviy elementlarning tarkibi va tarqalishi, ularning tarixiy va qadimgi suyaklardagi o'zgarishlari, biologik namunalardagi alfa-chiqaruvchi radionuklidlarning umumiy solishtirma aktivligi, ^{222}Rn hajmiy aktivligi va eksxalyatsiya tezligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: instrumental neytron-aktivatsion tahlil, radionuklidlarning umumiy α -aktivligini o'lchash usullari, CR-39 izli detektor.

Tadqiqotning yangiliklari quyidagilardan iborat:

suyak va tuproqdan hosil bo'ladigan ^{222}Rn ning α -zarralarini qayd qiluvchi CR-39 iz detektorli o'lchash kamerasi yordamida qadimgi suyak qoldiqlari va uning atrofidagi tuproqlardagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlashning yangi uslubi ishlab chiqilgan;

izli tahlil uslubi yordamida suyak qoldiqlarining yoshi ulardagi va atrofidagi tuproqdagi ^{226}Ra solishtirma aktivligining korrelyatsion bog'lanishlariga to'g'ri mutanosibda ekanligi aniqlangan;

instrumental neytron-aktivatsion tahlilidan foydalangan holda yangi topilgan suyak to'qimalarida ^{232}Th konsentratsiyasining kam miqdorda o'zgarishi ($0.58 \div 0.78$ mg/kg) ko'rsatilgan, uranning asosiy manbai tuproq ekanligi, shuningdek uranning miqdori ($1.5 \div 220$ mg/kg) ekanligi aniqlangan;

birinchi marta suyak qoldiqlari tarkibidagi radionuklidlarning umumiy solishtirma α -aktivligini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan va shu tariqa iz tahlili natijalari, radionuklidlarning umumiy α -aktivligi natijasiga yaqinlashishi ko'rsatilgan;

birinchi marta inson sochidagi ^{226}Ra konsentratsiyasini aniqlashning yuqori sezgirlikda o'lchaydigan uslub ishlab chiqilgan va inson sochi hududning radioaktiv bilan ifloslanish ko'rsatgichi bo'lib xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

instrumental neytron aktivatsion tahlil usuli bilan tarixiy va qadimiy suyak topilmalarida ^{238}U elementining konsentratsiyasi, topilmalar atrofidagi tuproqqa bog'liqligi aniqlangan;

instrumental neytron aktivatsion tahlil usuli bilan mamontlar va dinozavrlar suyaklaridagi ^{232}Th konsentratsiyasi unchalik katta bo'lmagan darajada farq qilishini isbotlandi hamda mos ravishda 0.58, 0.69, 0.62 va standart suyaklarda 0.78 mg/kg, atrofidagi tuproqlarda 13 dan 17 mg/kg gacha bo'lishligi aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchligi eksperimental ma'lumotlarni olishda zamonaviy qurilmalar va tadqiqot o'tkazish usullaridan foydalanilganligi bilan asoslangan, yaratilgan qurilmaning parametrlari va olingan natijalarning umumfizikaviy tushunchalarga muvofiqligi, ma'lumotlarni qayta ishlashda sinovdan o'tgan dasturlardan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar antropologiya va arxeologik sohasida topilmalarning biologik yoshini aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, atrof-muhitning radiatsiyaviy xavfsizligini monitoring qilish uchun radioekologiya muammolarini hal qiladi.

Natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan respublikamiz hududida sutemizuvchilar va ilk odamlar hayotining rivojlanishining turli bosqichlari to'g'risida real ma'lumotlarni olish, shuningdek, hududning radiatsiyaviy ifloslanishi dinamikasini baholash va o'rganish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Suyak qoldiqlari va inson sochlarini izli tahlili yordamida ^{222}Rn hamda ^{226}Ra ni aniqlash uslubini ishlab chiqishda olingan natijalarga asoslanib:

CR-39 iz detektorining o'lchash kamerasi yordamida qadimgi suyak qoldiqlari va uning atrofidagi tuproq qatlamidagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlash uslubi tog'-kon sanoati hamda geologiya vazirligining Davlat geologiya muzeyida qo'llanilgan (Davlat geologiya muzeyining xati 08.06.2023 yildagi 52-sonli xati). Natijalardan foydalanish skelet eksponatlari yuzasidan radon ajralishini kamaytirish va O'zbekiston Respublikasi radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN) sanitariya me'yorlari doirasida ^{222}Rn hajmiy aktivligini saqlab qolish imkonini bergan;

suyaklardagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi bo'yicha skelet eksponatlarining yoshini baholash usuli, shuningdek uran va toriy ni aniqlash uchun instrumental neytron aktivatsion tahlili natijalari tog'-kon sanoati ham geologiya vazirligining Davlat geologiya muzeyida qo'llanilgan (Davlat geologiya muzeyining 08.06.2023-yildagi №52-sonli xati). Natijalardan foydalanish skelet eksponatlarida atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatadigan og'ir radioaktiv elementlarning mavjudligi haqida ma'lumot olish imkonini bergan;

izolyatsiyalangan kamerada CR-39 iz detektori bilan ^{222}Rn ning α -zarralarini qayd qilish orqali sochlardagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlash uslubi O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida ro'yxatga olingan (Foydali

modelga patent №FAP01941, 29.04.2022). Uslubdan foydalanish ^{226}Ra ni aniqlash uchun tahlilni soddalashtirish va narxini kamaytirish imkonini beragan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya yetilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, foydali modelga 1 ta patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 89 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, uning asoslanganligi yoritilib, o'tkazilgan tadqiqotlar respublikaning fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi hamda muammoning o'rganilganlik darajasi belgilangan, tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyektlari, subyektlari va usullari haqida ma'lumot berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalga oshirish, ishni sinovdan o'tkazish, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Suyak va inson sochlarini tahlil qilishning yadroviy analitik usullarining holati**" nomli birinchi bobida suyak qoldiqlari va inson sochlaridagi elementlar hamda radioizotoplarni eksperimental aniqlash uchun yadro fizikasining bir qator tahlil usullaridan foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqishni ko'rib chiqadi; hayvonlar va ibtidoiy odamlarning yangi suyak qoldiqlari tarkibidagi kimyoviy elementlarni o'rganish uchun instrumental neytron-aktivatsion tahlilidan foydalanish, bu topilmalarning mamlakatimiz uchun antropologik ahamiyatini aniqlashda juda muhim; hayvonlar va ibtidoiy odamlarning suyak qoldiqlarida ^{222}Rn va ^{226}Ra darajasini o'rganish imkonini beruvchi CR-39 detektori yordamida izli tahlil uslubini hamda qurilmasini ishlab chiqish; ishning barcha bosqichlarini to'liq hajmda bajarish uchun uslublarni ishlab chiqish va qurilmalarni yaratish; dissertatsiya ishida o'rganilgan namunaviy obyektlar: arxeologik suyak qoldiqlari va sochlar haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot obyektlari va usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobi ushbu dissertatsiya tomonidan ishlab chiqilishi va qo'llanilishi yo'naltirilgan eksperimental usullarining batafsil tavsifi keltirilgan.

INAT usulida elementlarning konsentratsiyasini aniqlashda, aniqlanishi kerak bo'lgan elementlarning sonini oldindan rejalashtirish, analitik radionuklidlarni tanlash, shuningdek, nurlanish ta'sir qilish va namunalarning aktivligini o'lchash bilan bog'liq vaqt parametrlarini baholash kerak. Ushbu tajribada o'rganilayotgan suyaklardagi noma'lum elementning tarkibini aniqlash uchun mos keluvchi

etalondan foydalanildi. Bunday holda, ma'lumotnoma va o'rganilayotgan manbalarning tarkibi bir xil bo'lishi kerak, o'lchash shartlari ham butunlay bir xil bo'lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, namuna va etalonni o'lchashda geometriya hamda o'lchash rejimlari bir xil gamma-spektrometrik uskuna yordamida to'liq takrorlanishi kerak. Nisbiy aniqlash usuli bir xil namunalarni ommaviy o'lchash uchun juda qulay va element tarkibining haqiqiy qiymatiga yaqinroqdir. Ushbu usulda hisobga olish qiyin bo'lgan ba'zi xatolar, masalan, spektrometrik detektorning aniqlash samaradorligi, radiatsiya oqimining zichligi, yadro reaksiyasining faollashuvi kesimi va radionuklidlar chiqishi bilan bog'liq xatolar kamayadi.


Element tarkibini aniqlashning nisbiy usuli tekshirilayotgan namunaning o'lchov natijalarini va sertifikatlangan aktivlik qiymatiga ega bo'lgan namuna (standart, namunaviy, elementning ma'lum tarkibiga ega) bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Quyidagi munosabat bilan belgilanadi:

$$C_x = \frac{N_x}{N_s} C_s \quad (1)$$

bu yerda C_x va C_s – namuna elementining tarkibi va etalon, mg/kg; N_x va N_s – aniqlanayotgan element va etalonning vaqt birligidagi impulsi, imp/s.

Suyaklar va odamlarning sochlaridagi ^{222}Rn ning eksxalatsiya tezligini va ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlash uchun CR-39 izli detektoridan foydalanish orqali suyak kukunlari hamda soch tolalaridan ishlatilgan. Namunaning hajmi kamera hajmidan kichik bo'lsa yoki namuna kukunlardan yoki mayda tolali moddalardan iborat bo'lsa va aniq shaklga ega bo'lmasa, bunday hollarda radon eksxalyatsiya tezligini (RET) Bk/kg·soat birliklarida aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Chunki suyak kukunlari va soch tolalaridan radon emanatsiyasini o'lchashda ularning massasi hamda geometrik shakli hisobga olingan. RETni o'lchash uchun hajmi (280 ÷ 370) sm³ (Ø=(6 ÷ 7) sm va h=(13 ÷ 15) sm) bo'lgan silindrsimon plastmassa kameralar ishlatilgan. 1-rasmda kameraning o'lchov sxemasining ko'rinishi berilgan.



1-rasm. Radonning hajmiy aktivligini o'lchash kamerasing sxematik ko'rinishi: 1 – taglik, 2 – namuna, 3 – kamera, 4 – CR-39 detektor

CR-39 detektori kamera ichiga vertikal ravishda o'rnatilgan. Kameraga suyak kukuni yoki soch tolasi kichik plastik idishga joylashtiriladi. O'rganilayotgan namunalarning massasi biologik turga qarab tanlangan va 1 dan 10 grammgacha o'zgarib turadi. Ekspozitsiya vaqtida namunadan chiqayotgan radonning α -zarralari CR-39 detektoriga yetib boradi va detektor yuzasida ko'zga ko'rinmas izlar hosil qiladi. Tajriba o'tkazilish jarayonida kameraning foni hisobga olinishi kerak. Shuning uchun, ishchi fonning hissasini hisobga olish uchun ekspozitsiyada bir nechta o'lchash kameralarida namunalar bilan birga parallel ravishda namunalarsiz amalga oshirildi.

Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, CR-39 detektori uchun optimal o'lchash rejimi quyidagicha: 6M NaOH eritmasi bilan 70°C temperaturada 7 soat vaqt mobaynida ediriladi. Bunday sharoitda hosil bo'lgan izlarning diametri (8 ÷ 10) mkm o'lchamlargacha kattalashadi va detektordagi izlarni mikroskopda kuzatish mumkin bo'ladi. Qulaylik uchun optik mikroskop programma orqali kompyutrga ulangan bo'lib detektordagi izlarni kamera orqali bema'lol ko'rishimiz va tahlil qilishimiz mumkin.

^{222}Rn dan hosil bo'lgan α -zarrachalarni to'g'riligini baholash uchun suyak namunalariidagi radionuklidlarning umumiy α -aktivligini o'lchash MKGB-01 "RADEK" sintillyatsion alfa radiometri bilan amalga oshirildi. MKGB-01 "RADEK" alfa radiometrining asosiy texnik tavsiflari quyidagilardan iborat: diametri 60 mm bo'lgan sintillyatsion detektor ZnS(Ag), α -zarrachalarni aniqlash uchun energiya diapazoni (2 ÷ 10) MeV, α -zarralarni aniqlash effektivligi 60% dan kam emas, umumiy α -aktivligining o'lchov diapazoni (0.1 ÷ 5·10⁴) Bk, xatoligi ±20% dan ko'p emas.

Dissertatsiyaning "**Suyak qoldiqlarida neytron-aktivatsion tahlil usuli**" deb nomlangan uchinchi bobida suyak qoldiqlari tarkibidagi elementlarni o'rganishda neytron-aktivatsion usulining imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Tarixiy va qadimgi suyaklar, standart suyaklar va ularning tuproqlarining elementar tarkibi uchun INAT natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Suyak tarkibida (10^{-2} ÷ $63.2 \cdot 10^3$) mg/kg oralig'ida bo'lgan jami 23 ta element topildi. Suyaklardagi Na va Ca ning miqdori (3350 ÷ 4420) mg/kg hamda (27.4% ÷ 41.6%) ni tashkil qiladi. Standart suyak (STS) va janubiy mamont suyaklar (JMS) tarkibida bo'lgan Sc, Cr, Mn, Fe va Co elementlari uchun mos holda 0.47 mg/kg dan 63200 mg/kg gacha aniqlangan.

Tarixiy va qadimgi suyaklardagi (Angrenda topilgan janubiy mamont suyak (JMS-A), Qashqadaryoda topilgan janubiy mamont suyak (JMS-Q) va dinozavr suyak (DS)) yadro parchalanish elementlarining o'rtacha qiymatlarining standart suyakga (STS) nisbati Sc – 17, As – 20, Sr – 20, Mo – 68, Ba – 19, La – 248, Ce – 30, Sm – 18, Eu – 18, Yb – 67.

INAT natijalariga ko'ra, STS uran miqdori ≤0.01 mg/kg va tuproqda 3.4 mg/kg. Arxantrop va ayiq suyaklarida (AS va AYS) parchalanish elementlarining o'rtacha qiymatlarining STS nisbati mos holda As – 15, Sr – 18, Mo – 53, Ba – 27, La – 8, Ce – 20, Sm – 12, Eu – 7 tashkil qiladi.

Bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan suyaklardagi (DS, JMS, AS va AYS) bo'linish elementlari (As, Br, Mo, La, Ce, Nd, Sm, Eu, Tb, Yb, Lu va boshqalar) hosil bo'lishi uzoq vaqt davomida ^{235}U yadrosiga tabiiy neytronlarning ta'siri natijasida bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, dinozavrlar, janubiy mamontlar va arxantrop suyaklarida ^{238}U kontsentratsiyasi 1.5 mg/kg dan 220 mg/kg gacha, standart suyakda 0.01 mg/kg qiymatiga ega. Bu esa qadimgi suyaklarning sayyoramizdagi hayot rivojlanishining turli davrlariga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, JMS-A, JMS-Q, DS, va STS da ^{232}Th kontsentratsiyasi mos holda. 0.69, 0.62, 0.78, va 0.58 mg/kg ni tashkil etadi. O'rganilgan namunalarda ^{232}Th ning o'rtacha qiymati (0.67 ± 0.07) mg/kg ni tashkil qiladi va INAT xatoligi chegaralarida yotadi. Suyaklardagi toriy miqdorining doimiyligi toriyning uranga qaraganda kamroq harakatchanligini ko'rsatadi.

1-javal

Tarixiy va qadimgi dinozavr suyaklari, janubiy mamontlar va ularning atrofidagi tuproqlarining INAT usulida olingan natijalari

Elementlar	Standart suyak, [mg/kg]		Tarixiy suyaklar, [mg/kg]					
	STS	Tuproq	JMS-A	Tuproq	JMS-Q	Tuproq	DS	Tuproq
Na	3350	8800	3500	11500	3610	6800	4420	7200
K	1210	20000	1100	23500	500	21300	1290	18500
Ca(%)	29.2	9.8	40	2.9	41.6	6.2	27.4	5.1
Sc	0.47	8.8	13	9.8	3.1	15	7.5	9.2
Cr	8.7	56	3.5	63	6.8	77	9.3	53.8
Mn	40	665	37	755	1970	760	49800	640
Fe	1440	25000	69	32300	1250	33400	63200	32000
Co	1.15	9.3	0.054	15	1.6	16	43	11.5
As	1.6	7.5	12	7.1	19	7.0	65	7.8
Sr	104	270	430	240	3400	310	2390	370
Mo	<0.5	2.7	36	3.6	17	1.3	49.5	2.8
Sb	0.85	3.0	0.35	2.1	4.4	2.1	6.2	2.5
Cs	0.34	4.6	0.047	7.2	0.42	8.3	-	-
Ba	360	810	1490	710	18000	655	545	650
La	2.5	42	5.9	54	37	45	1810	42
Ce	3.6	54	74	21	-	-	140	14.5
Nd	-	-	0.01	0.02	0.01	0.04	0.02	0.08
Sm	0.32	4.95	7.1	3.1	0.61	5.7	9.9	6.2
Eu	0.071	1.05	0.25	1.3	0.3	1.25	3.6	0.9
Yb	0.12	2.7	3.3	1.8	2.9	0.46	18	1.9
Hf	0.28	5.4	7.6	4.6	0.83	4.9	0.71	5.6
Th	0.58	13	0.69	17	0.62	14	0.78	15
U	<0.01	3.4	220	7.8	180	4.0	35.5	4.1


Biologik materillarda elementlarning yig'ilish qiymatini baholash uchun, ya'ni elementlarning harakatchanlik darajasini va o'simlik organizmi tomonidan

yig'ilishini belgilaydigan "o'simlik-tuproq" tizimiga o'xshash "suyak-tuproq" tizimida elementlarning yig'ilish nisbati tekshirildi. Odatdagidek, antropologik tadqiqotlar uchun, biologik tadqiqotlardan farqli o'laroq, EYShK (Elementlarni yig'ilish shartli koeffitsiyenti) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$EYShK = \frac{M_S}{M_T} \quad (3)$$

bu yerda M_S – suyakdagi elementlar miqdori, M_T – tuproqdagi elementlar miqdori.

2-rasmda As, Sr, Mo, La, Sm, U va Th uchun (STS/tuproq, JMS-A/tuproq, JMS-Q/tuproq, DS/tuproq) EYShK ning gistogramma ko'rinishi keltirilgan.



2-rasm. As, Sr, Mo, La, Sm, U va Th elementlari uchun EYShK

Ko'rinib turibdiki, uran elementi uchun topilma suyaklarga nisbatan standart suyaklarda EYShK sezilarli darajada kichkina ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa suyak qoldiqlarining tuproq tarkibida uzoq vaqt davomida yotishi bilan tushuntirish mumkin. Topilmalarning yoshi oshgani sayin, bu nisbatlar ham o'zgaradi. Ushbu qiyosiy misollar va Suyak/Tuproq nisbati uchun EYShK qiymatlarining mantiqiy tahliliga asoslangan holda Angren hamda Qashqadaryo viloyatlarida topilgan janubiy mamont suyagi namunalari yoshi o'n million yil bo'lishi mumkin. Aniqlangan elementlar ichida suyaklarga nisbatan eng yaxshi harakatchangi uran elementi ekanligi aniqlandi.

INAT usulida olingan natijalarining ishonchliligini baholash uchun biz olgan standart suyaklarning elementlar tarkibini boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirdik. Natijalar shuni ko'rsatdiki standart suyaklardagi Sc, Mn, As va La elementlar tarkibi bir oz farq qilishi va Na, K, Ca, Cr, Fe, Co, Sr, Sb, Cs, Ba, Th, va U kabi boshqa elementlarning miqdori boshqa mualliflarning ma'lumotlariga to'g'ri kelishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning "Suyak qoldiqlari va inson sochlaridagi ^{222}Rn va ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlash usulini ishlab chiqish" deb nomlangan

to'rtinchi bobida suyak topilmalarida va inson sochida ^{222}Rn eksxalyatsiya tezligini hamda ^{226}Ra solishtirma aktivligini aniqlashning uslublari keltirilib o'tilgan.

2-jadvalda o'rganilayotgan suyaklar va tuproqlarda ^{222}Rn hajmiy aktivligi (Bk/m^3) hamda eksxalyatsiya tezligini ($\text{Bk}/\text{kg}\cdot\text{soat}$) o'lchash natijalari ko'rsatilgan.

2-jadval

Suyak va tuproqlarda ^{222}Rn hajmiy aktivligi hamda eksxalyatsiya tezligi

№	Namuna, Suyak va tuproq	ρ , iz/ $\text{sm}^2\cdot\text{kun}$	A_{Rn} , Bk/m^3	E , $\text{Bk}/\text{kg}\cdot\text{soat}$
1	JMS-A*	2766	16180±3794.2	13.7±2.8
	Tuproq JMS-A	239	1398±327.8	1.18±0.23
2	JMS-Q	508	2970±696.4	2.53±0.6
	Tuproq JMS-Q	46	269±63	0.23±0.05
3	DS-1	916	5313±1245.8	4.49±0.9
	Tuproq DS-1	41	239.8±56.2	0.20±0.04
4	DS-2	220	1276±299.2	1.08±0.22
	Tuproq DS-2	32	185.6±43.5	0.16±0.03
5	AS	140	812±190.4	0.69±0.13
	Tuproq AS	39	226±52.9	0.19±0.04
6	STS	31	182.4±42.7	0.15±0.03
	Tuproq STS	40	235.3±55.1	0.20±0.05

Aniqlanishicha, tarxiy va qadimgi suyaklarda A_{Rn} hamda E mos holda ($812 \div 16180$) Bk/m^3 va ($0.69 \div 13.7$) $\text{Bk}/\text{kg}\cdot\text{soat}$, ularning tuproqlarida esa ($185.6 \div 1398$) Bk/m^3 va ($0.16 \div 1.18$) $\text{Bk}/\text{kg}\cdot\text{soat}$ aniqlandi. Standart suyak va ularning tuproqlarida esa mos holda E 0.15 $\text{Bk}/\text{kg}\cdot\text{soat}$ va 0.20 $\text{Bk}/\text{kg}\cdot\text{soat}$ bo'lsa A_{Rn} esa mos holda 182.4 Bk/m^3 va 235.3 Bk/m^3 larda aniqlandi.

3-jadvalda dinozavrlar, janubiy mamontlar, arxantropalar, standart suyaklar va ularning atrofidagi tuproqlar, ya'ni topilmalarni o'rab turuvchi tuproqlar takibidagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi keltirilgan. 3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Angren tuprog'ida ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi (133.4 ± 27.1) Bk/kg ni tashkil etgan. Boshqa namunalarda tuprog'ida esa ($17.7\pm 3.5 \div 25.7\pm 5.9$) Bk/kg oralig'ida aniqlandi.


Angrenda topilgan mamont suyagida radiyning solishtirma aktivligi boshqa topilmalarga nisbatan yuqori qiymatlarda aniqlanganligi shu hududning tuproqlarida radiyning solishtirma aktivligi yuqori ekanligidandir, qolaversa, Angerin hududida uran koni mavjudligi bilan ham tushuntiriladi, radiy esa uranning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan elementdir. Demak Angenda topilgan (JMS-A) mamont suyagidagi radiyning solishtirma aktivligi 1543.6 Bk/kg ni tashkil etadi, bu esa boshqa namunalardan 88.7(STS), 19.6(AS), 12.6(DS-2), 3(DS-1) va 5.4(JMS-Q) marta ko'proq. Angren tuprog'ida radiyning solishtirma aktivligi boshqa hududlarga nisbatan ($5 \div 8$) marta oshib ketishi bu hududda og'ir radioaktiv elementlarning ko'pligidan dalolat beradi. Bundan kelib chiqadiki, suyak qoldiqlarida ^{226}Ra yig'ilish koeffitsiyent tuprog' tarkibidagi suyaklarning vaqt davomiyligiga bog'liq ekanligi kelib chiqadi.

Suyak va topilmalarning atrofidagi tuproqlar tarkibidagi ^{226}Ra solishtirma aktivligi

№	Namuna, suyak va tuproq	ρ , iz/sm ² ·kun	A_{Rn} , Bk/m ³	C_{Ra} , Bk/kg
1.	JMS-A*	2766	16180±3794.2	1543.6±257.2
	Tuproq JMS-A	239	1398±327.8	133.4±27.1
2.	JMS-Q	508	2970±696.4	283.3±70.8
	Tuproq JMS-Q	46	269±63	25.7±5.9
3.	DS-1	916	5313±1245.8	506.9±106.2
	Tuproq-1	41	239.8±56.2	22.8±4.7
4.	DS-2	220	1276±299.2	121.7±26.0
	Tuproq DS-2	32	185.6±43.5	17.7±3.5
5.	AS	140	812±190.4	77.5±15.3
	Tuproq AS	39	226±52.9	21.6±4.7
6.	STS (QS)	30	182.4±43.0	17.4
	Tuproq STS	40	235.3±55.1	22.4±6.0
7.	Yangi suyak (YaS) 12.2022 г.	2.2	13.0±3.1	6.45±2.1


Natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, yangi qoramol suyagida ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi 6.45 Bk/kg ni tashkil etdi, bu boshqa mualliflarning ishlaridan sezilarli darajada farq qiladi.

3-rasmda topilmalarning antropologik qiymatlarni ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi dinosavr suyaklarida (DS), mamontlarda (JMS-A va JMS-Q) va arxantoplarda (AS), shuningdek, standart suyaklarda (STS) (3-rasm) radiy tarkibining o'zgarish xarakterini aniq ko'rsatib beradi.



3-rasm. ^{226}Ra konsentratsiyasi 1 – JMS-A, 2 – JMS-Q, 3 – DS-1, 4 – DS-2, 5 – AS, 6 – STS.

Tarixiy va qadimgi suyaklarda C_{Ra} ^{226}Ra ($77.5 \div 1543.6$) Bk/kg oralig'ida bo'lib, STSda esa 17.4 Bk/kg ni tashkil qiladi. Bu esa standart suyakga nisbatan tarixiy va qadimgi suyaklarda ^{226}Ra solishtirma aktivligi ($4.5 \div 90$) baravar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, topilma suyaklarning yoshi oshgan sayin ^{226}Ra solishtirma aktivligi ham oshib borar ekan.



4-rasm. Topilma suyaklarning yoshi, ^{226}Ra ning solishtirma aktivligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi.

4-rasmda tarixiy va qadimgi suyaklardagi ^{226}Ra solishtirma aktivligi hamda topilmalarning yoshiga bog'liqligi ko'rsatilgan.


Gistogrammadan kelib chiqib suyaklarning taxminiy yoshini quyidagi tartibda baholash mumkin, agar ^{226}Ra $C_{Ra} < 6.45$ Bk/kg, u holda yoshi < 1 yilgacha, agar ^{226}Ra $C_{Ra} < 20$ Bk/kg, u holda yoshi < 100 yilgacha, agar ^{226}Ra $C_{Ra} < 100$ Bk/kg, bo'lsa < 1 million yilgacha, agar ^{226}Ra $C_{Ra} > 100$ Bk/kg bo'lsa, unda topilmalarning yoshi > 1 million katta. Dinozavrlar va mamontlar suyak qoldiqlarida ^{226}Ra $C_{Ra} > 500$ Bk/kg da aniqlangan edi, shuning uchun biz ularning yoshini 10 million yildan ortiq deb hisoblaymiz.

4-jadvalda suyak va tuproq namunalari tarkibida bo'lgan radionuklidlardan α -aktivliklari bo'yicha umumiy α -aktivligi natijalari keltirilgan, Bk/kg. 4-jadvaldan ko'rinib turibdiki radionuklidlarning C_{α} tarixiy va qadimgi suyaklar uchun ($988 \div 10728$) Bk/kg, tuproq uchun ($360 \div 1828$) Bk/kg oralig'ida o'zgarib turadi. Suyaklardagi C_{α} va C_{Ra} ni solishtirish shuni ko'rsatadiki, umumiy solishtirma α -aktivligi C_{α} , C_{Ra} dan ($10 \div 100$) marta farq qiladi, tuproqlarda C_{α} va C_{Ra} uchun ham xuddi shunday. Standart suyakdagi C_{α} qiymatlari (1104 Bk/kg) tuproqdagi C_{α} dan (360 Bk/kg) 3 baravar yuqori, standart suyakdagi C_{Ra} esa (17.4 Bk/kg) tuproqdagiga (22.4 Bk/kg) qaraganda 20% kam bo'lib chiqdi.

O'rganilayotgan namunalarning umumiy solishtirma α -aktivligi

No	Namuna, Suyak va tuproq	N_α , α /soat	C_α , Bk/kg
1	JMS-A*	447	10728±2000
	Tuproq JMS-A	78	1828±340
2	JMS-Q	129	3097±560
	Tuproq JMS-Q	21	504±90
3	DS-1	120	2877±540
	Tuproq DS-1	15	360±68
4	DS-2	57	1369±240
	Tuproq DS-2	16	384±76
5	AS	42	988±190
	Tuproq AS	17	408±78
6	STS (QS)	46	1104±210
	Tuproq STS	15	360±68

O'lchash natijalarni taqqoslash maqsadida 5-rasmda CR-39 detektorlari yordamida iz tahlilining to'g'riligini baholash uchun gistogramma shakli berilgan. a) va b) o'rganilayotgan suyaklardagi (JMS-A, JMS-Q, DS-1, DS-2, AS, STS) RET va radionuklidlarning umumiy α -aktivligi (UAA).



5-rasm. Suyaklardagi radionuklidlarning UAA va RET natijalarini taqqoslash.

Gistogrammadan ko'rinib turibdiki, radionuklidlarning umumiy α -aktivlik (UAA) qiymatlari RET dan (10÷12) martataga yuqori qiymatda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Radionuklidlarning UAA suyak tarkibida bo'lgan barcha radionuklidlarning (^{235}U , ^{238}U , ^{232}Th va parchalanish natijasida hosil bo'ladigan radionuklidlar Ra, Rn, Po, Bi, At va h.k.) α -nurlanishida olingan natijalar. RET esa ^{222}Rn dan hosil bo'lgan α -nurlanishning aktivligi. Taqqoslashlar kuzatish usullari o'rtasida to'liq mos kelishini aniq ko'rsatadi.

Uslub atrof-muhit obyektlarining radiatsiyaviy monitoringi sohasiga tegishli bo'lib, sochlardagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Inson sochlari og'ir radioaktiv ^{226}Ra metallning effektiv dozasi inson tanasiga ta'sirini baholash ko'rsatkichi hisoblanadi.

Uslubning asosi ^{226}Ra va ^{222}Rn radioaktiv muvozanatga erishgandan so'ng sochlardagi ^{222}Rn hajmiy aktivligini o'lchashga asoslangan.

5-jadvalda Angrenda va Toshkent yashovchi insonlarning sochlarida ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi hamda konsentratsiyasining natijalari ko'rsatilgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Toshkent aholisidan olingan soch namunalari ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi mos ravishda bolalar uchun 0.12 dan 0.24 mBk/g gacha va kattalar uchun 0.36 dan 0.71 mBk/g gacha aniqlandi. Angrenda yashovchi aholidan olingan soch namunalari esa bu qiymatlar 0.75 dan 1.65 mBk/g gacha. Angrenliklar sochidagi radiyning solishtirma aktivligi Toshkent ma'lumotlariga nisbatan $2 \div 2.5$ barobar ortib borishi bu hududda og'ir radioaktiv elementlarning yuqori konsentratsiyasi mavjudligidan dalolat beradi. Buning uchun Angren va Toshkent tuproqlarida radonning hajmiy aktivligi (RHA) hamda ^{226}Ra solishtirma aktivligini o'lchovlari o'tkazildi va aniqlandi.

5-jadval

Angren va Toshkent odamlarining sochlaridagi ^{226}Ra solishtirma aktivligi va konsentratsiyasi

№	Soch	ρ , iz/sm ² ·70 kun	A_{Rn} , mBk/m ³	C_{Ra} , mBk/g	m_{Ra} , 10 ⁻¹⁴ g/g
1	Ташкент	6	331.5±94.5	0.12±0.03	0.32
2		13	667±141.7	0.24±0.05	0.64
3		20	993±283.53	0.36±0.1	0.97
4		39	1937±387.4	0.71±0.14	1.91
5		30	1500±300	0.55±0.11	1.48
6	Ангрен	41	2036±407.2	0.75±0.15	2.02
7		71	3527±705.4	1.30±0.26	3.51
8		90	4471±894.2	1.65±0.33	4.45

6-jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, Angren tuprog'ida ^{226}Ra solishtirma aktivligi Toshkent tuprog'iga nisbatan 6 marta yuqor ekanligi aniqlandi va mos holda Angren hamda Toshkent tuproqlar tarkibida ^{226}Ra solishtirma aktivligi (134±24) Bk/kg va (22.4±6.0) Bk/kg ga teng.

Angren va Toshkent tuproqlarida ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi

Tuproq	ρ , iz/sm ² ·kun	A_{Rn} , Bk/m ³	C_{Ra} , Bk/kg
Angren	240	1405±327.8	134.2±25.0
Toshkent	40	235.3±55.1	22.4±6.0

Shunday qilib, Angren va Toshkent hududida istiqomat qiladigan insonlarning sochlari tarkibida ^{226}Ra solishtirma aktivligining o'rtacha qiymati mos holda (1.23±0.2) mBk/g hamda (0.54±0.12) mBk/g ni tashkil qildi. Bu esa ^{226}Ra sochda biologik to'planishini ko'rsatadi bunga sabab suv va oziq-ovqat mahsulotlarini istemol qilishi hamda hududning tuprog'idir. Angren aholisining sochlarida radiyning ortiqcha konsentratsiyada bo'lishi hududning geologik joylashuvi bilan bog'liqdir.

Atmosferadan og'ir tabiiy radionuklidlarning sochlardagi to'planishiga kelsak, ularning miqdori ahamiyatsizdir.

XULOSA

“CR-39 izli detektor bilan suyak qoldiqlari va odamlar sochlaridagi ^{222}Rn va ^{226}Ra ni aniqlash uslubini ishlab chiqish” mavzusida texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida quyidagi natijalar va xulosalar shakillantirildi:

1. INAT usulida topilma suyak to'qimalarida uranning miqdori (35.5 ÷ 220) mg/kg va standart suyaklarda <0.01 mg/kg aniqlandi. Dinozavr, janubiy mamont, arxantrop va standart suyaklar tarkibidagi ^{232}Th ning miqdori 0.58 ÷ 0.78 mg/kg ni tashkil qilishi isbotlandi.
2. Tarixiy va qadimgi suyak qoldiqlarida ^{226}Ra solishtirma aktivligini aniqlash uchun oddiy hamda oson o'lchash uslubi ishlab chiqildi (№ FAP 2022 0440).
3. Tarixiy va qadimgi suyak qoldiqlarini yoshi ulardagi ^{226}Ra konsentratsiyasiga bog'liqligi ko'rsatildi.
4. Birinchi marta suyak qoldiqlaridagi radioizotoplarning umumiy α -aktivligini aniqlash uslubi ishlab chiqildi. Radionuklidlarning umumiy solishtirma α -aktivligining qiymatlari xuddi shu namunalardagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi qiymatlaridan (10 ÷ 12) baravar yuqori ekanligi ko'rsatildi.
5. CR-39 detektor yordamida inson sochidagi ^{226}Ra ning solishtirma aktivligini aniqlash uchun oddiy va yuqori sezgirlikka ega, ya'ni 0.12 mBk/g ($0.32 \cdot 10^{-14}$ g/g) gacha bo'lgan uslub ishlab chiqildi. Aniqlanishicha, Toshkentda yashovchi insonlarning sochlariga nisbatan Angrenda yashovchi insonlarning sochlarida ^{226}Ra ning solishtirma aktivligi (2 ÷ 2.5) baravar yuqori ekan aniqlandi. Bu esa bizga ushbu hududda og'ir radioaktiv elementlarning yuqori konsentratsiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Sochlardagi radiyning solishtirma aktivligining joylarga nisbatan o'zgarishi, sochni radioindikator sifatida foydalanish mumkinligini isbotlaydi (Foydali modelga patent olingan № FAP 01941, 29.04.2022).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM/Т.33.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

ИНСТИТУТ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ

САЙДУЛЛАЕВ БАХОДИР ЖУРАЕВИЧ

**РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ^{222}Rn И ^{226}Ra В
КОСТНЫХ ОСТАНКАХ И ВОЛОСАХ ЧЕЛОВЕКА ТРЕКОВЫМ
ДЕТЕКТОРОМ CR-39**

01.04.01 – Приборы и методы экспериментальной физики

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером **B2023.4.PhD/TXXX**.

Диссертация выполнена в Институте ядерной физики Академии наук Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.inp.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Васидов Абдисамат
доктор технических наук,
старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Раджапов Сали Аширович
доктор физико-математических наук,
старший научный сотрудник

Данилова Елена Артаваздовна
кандидат химических наук,
старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 при Институте ядерной физики (Адрес: 100214, г. Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ АН РУз. Тел.: (+99871) 289-31-41; факс: (+99871)289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ядерной физики (регистрационный номер _____) (Адрес: 100214, г. Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ АН РУз. Тел. (+99871) 289-31-19).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2023 г.
(протокол рассылки № _____ от «___» _____ 2023 г.).

М.Ю. Ташметов
председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

О.Р. Тожибоев
ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
PhD ф.-м.н, старший научный
сотрудник

Э.М.Турсунов
председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время исследование методом инструментального нейтронно-активационного анализа (ИНАА) проводится во многих ведущих научных центрах мира. Среди радиоаналитических методов инструментальный нейтронно-активационный анализ получил широкое применение благодаря низкому пределу обнаружения элементов и возможности проведения многоэлементного анализа. Для археологов, палеонтологов и радиоэкологов практический и научный интерес представляют сведения об элементном составе костей, а также подвижность и накопление радионуклидов в костях при длительном нахождении скелета в недрах земли. Актуальность инструментального нейтронно-активационного анализа подтверждается исследованиями вариаций содержания элементов в недавно найденных (2000–2014 гг.) костных останках динозавров, южного мамонта, архантропа и стандартных костях овцы и крупного рогатого скота, соответствующих различным возрастным периодам развития жизни на нашей планете. Для определения скорости эксхалляции ^{222}Rn и удельной активности ^{226}Ra в костных образцах востребованы методики трекового анализа с применением ядерных твердотельных детекторов (ЯТТД) типа CR-39.

В мире методы измерения альфа излучателей нашли широкое применение в исследованиях, связанных с экологией, производством продуктов питания, охраной здоровья, геологическими и геофизическими изысканиями. Для исследования радона в природных и техногенных объектах широко применяются ядерные твердотельные трековые детекторы (ЯТТД). Преимуществами ЯТТД являются их простота, возможность работы в широком диапазоне температур, в условиях больших потоков слабоионизирующих гамма и бета излучений, получение интегральной или усредненной активности радона. В условиях изменения климата и техногенного воздействия радиоактивных загрязнений на экологическую среду, чрезвычайная роль отводится радиационному контролю уровня радиации в органах человека, так как возникновение заболеваний тех или иных органов человека находится в прямой зависимости от радиационного уровня. Одним из индикаторов состояния здоровья, являются волосы человека.

В нашей Республике проводятся работы по определению состава и вариации радиоактивных микроэлементов в волосах, что позволяет ученым радиоэкологам и медикам использовать их как показатель физического состояния организма человека. Направление этих прикладных исследований, имеющих большое значение для развития науки нашей страны, связаны со Стратегией² развития нового Узбекистана на 2022–2026 гг.

²Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 гг.» от 28 января 2022 г.

Исследования, проведенные в данной диссертационной работе, в определенной мере соответствуют задачам, обозначенным в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 гг.», Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 15 декабря 2010 года № ПП-1442 «О приоритетах развития промышленности Республики Узбекистан в 2011–2015 гг.», от 17 февраля 2017 года № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данном направлении.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики II. «Энергетика, энергосбережение и альтернативные источники энергии», VII. «Науки о земле (геология, геофизика, сейсмология и переработка минерального сырья)».

